



ORCID: 0009-0006-7323-4301

УДК:93/99+94+930.8+7.031(282.1)

ABULQOSIM BOBUR MIRZONING MADANIY JARAYONLARDAGI SHAXSIY ISHTIROKI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasida tayanch doktoranti

abdunosirovaozodaxon@gmail.com

+90-151-62-37

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulqosim Bobur mirzoning fan va adabiyot sohasidagi shaxsiy ishtiroki, hamda uning madaniyat namoyondalariga homiylik faoliyati, Xurosondagi ilmiy-adabiy jarayonlar manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Abulqosim Bobur mirzoning ilmiy va ijodiy salohiyati haqida ba‘zi mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar va iboralar: Abulqosim Bobur mirzo, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy, madaniy hayot, adabiy to‘garaklar, Mavlono Muammoiy, astronomiya, falsafa, Hirot, Mashhad, Yazd, ilmiy kechalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается личное участие Абулкосима Бобура Мирзы в области науки и литературы, а также его деятельность в поддержке культурных деятелей, анализируется на основе источников и научно-литературных работ, а также высказываются некоторые замечания о его научном и творческом мастерстве.

Ключевые слова и фразы: Абулкосим Бобур Мирзо, Хондамир, Абдурразак Самарканди, культурная жизнь, литературные круги, Мавлано Муаммой, астрономия, философия, Герат, Мешхед, Язд, научные вечера

Abstract. This article examines the personal involvement of Abulkosim Bobur Mirza in the fields of science and literature, as well as his activities in supporting cultural figures, analyzed based on sources and scholarly works, with some remarks on his scientific and creative mastery also expressed.

Key words: Abulkosim Bobur Mirza, Khondamir, Abdurrazak Samarkandi, cultural life, literary circles, Mavlono Muammoiy, astronomy, philosophy, Herat, Mashhad, Yazd, scientific gatherings.

KIRISH. Temuriylar davri ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan shahzodalardan biri Abulqosim Bobur mirzodir. Shahzoda ilm-ma‘rifatga ixlosmand bo‘lgan va fanning turli sohaları bo‘yicha yetuk mutaxassislarini o‘z saroyiga taklif qilgan hamda diniy, dunyoviy masalalar borasida bahs-munozaralar o‘tkazgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Hofizu Abru, Fasih Havofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Hasanbey Rumli, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Muhammad Ja‘far, Ahmad Kotib, Faxriy Hiraviy kabi muarrixlarning asarlarida masalaga doir qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Xususan, Faxriy Hiraviy uning ijodiy faoliyatiga yuksak baho berib, “bag‘oyatda darveshsifat, xushtab’, karimta‘b va oliyhimmomat podshoh”, -deya ta‘riflagan [1:34-35-b]. Muarrix uning “Bobur Qalandar” taxallusi bilan turk va fors tillarda ijod qilgani haqida so‘z yuritarkan, ulardan namunalar keltirgan.

NATIJALAR. Abulqosim Bobur mirzo o‘z davrining yirik ma‘rifatparvari bo‘lib, Hirot saroyidan kelgusida adabiyot va san‘at darg‘alari yetishib chiqishida sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatgan. Masalan, Sulton Husayn Bayqaro uchun 100 ming dinor ulufa ajratgan [2:145-b]. Uning saroyida ilmiy-ma‘rifiy majlislar bo‘lgan va adabiy to‘garaklar muntazam ravishda faoliyat ko‘rsatgan [3:346-b]. Abdurazzoq Samarqandiy bergan ma‘lumotlarga ko‘ra Iroq safaridan qaytib, 1452-yilning avgust oyida Yazd shahrida to‘xtagan va Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashgan hamda ular ba‘zi masalalar borasida suhbat qilishgan[4:336-b]. Ahamiyatli jihati shundaki, mavlono Sharifuddin Abdulqahhor “Iroq fathi”ga bag‘ishlab, mavlono Sharifuddin Abdulqahhor “Boburxon” ruboiysini bitib yuborgan bo‘lsa, Sharafuddin Ali Yazdiy esa “Boburxon” tarixini yozgan.

Shohrux mirzo davrida aka-ukalari Alouddavla mirzo va Sulton Muhammad mirzolarga qaraganda e‘tibordan ancha chetda bo‘lgan va siyosiy jarayonlarda faol bo‘lmagan. Shahzoda ko‘plab tarixiy va tasavvufiy asarlarni o‘rgangan va yoddan ayta olgan. Masalan, Faxruddin Ibrohim Hamadoniyning “Lamaot”, Abulkarim Shabistariyning “Gulashni roz” va al-Arabiyning Fusus al-hikam” kabi tasavvufiy asarlarni sevib mutolaa qilgan[3:400-b]. Shu bilan birga din ulomolarining hikmatli so‘zlarini ham tinglab yurgan.

Abulqosim Bobur mirzo saroyida “piri muammoiy” nomi bilan shuhrat qozongan mavlono Muammoiy xizmat qilgan. Mazkur shoir Amir Xusrav Dehlaviyning risolalari va asarlarini jamlagan. Mavlono Muammoiy katta boylikka ega bo‘lgan va Xoja Hofiz qabriga gumbaz qurdirgan. Inshootning qurilishi yakunlanishi munosabati bilan ziyofat tashkil qilgan va bu yerga Abulqosim Bobur ham tashrif buyurgan [5:659-b]. Ushbu imoratning devorlariga Sherozning shoirlaridan biri “shaharning vaqflarini butunlay sovurgan bo‘lsa-da, xudo xayrini bersinki, shu binoni qurdi”, mazmunidagi baytni yozilgan va Abulqosim Bobur mirzo ham uni o‘qigan hamda shoirga she‘riy tarzda javob qaytargan [6:207-b]. Shunigdek, uning adabiy majlislarida darveshlar ham qatnashgan. Masalan, 1456-yilda Mashhad atrofidagi Laxshak tog‘ida ov tashkil qilingan va unda saroy shoirlari, ziyolilari bilan birga darvesh ham qatnashgan. Darveshlardan birining 50 baytlik “tarji‘band”i Abulqosim Bobur va boshqa yirik amirlarning e‘tirofida sazovor bo‘lgan[7:392-b]. XV asrda yashagan Tohir Abivardiy, Tohir

Buxoriy, Vali Qalandar va Mavlono Volaxiy kabi shoirlar shahzodaning homiyligi bilan ijod qilgan **[6:182-b]**.

Abdurazzoq Samarqandiy uning hukmronligi davrida Hirot saroyidagi ilmiy muhit haqida so‘z yuritar ekan, Movarounnahr va Xurosondagi “ilmi maoniy”⁴⁴ ya’ni mantiq fanining yirik olimlari to‘plangani va ular ikki guruhga ajralganini eslab o‘tadi **[3:388-b]**. Jumladan, ular Abulqosim Bobur mirzo huzurida “fikr” mavzusida bahs-munozara olib borishgan, “qadim mantiqchilar” uni “ikki harakat” deb tasvirlasalar, keyingilari “ma’lum ishlarini tartibga keltirish” sifatida ta’riflagan. “Matlai sa’dayn...”da berilgan ma’lumotlarga tayanilsa, ikkala taraf vakillari ham ushbu masalani yecha olishmaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Abulqosim Boburning topshirig‘iga binoan, Xuroson o‘lkasining e’tiborli shayx va ulamolari bo‘lmish Qutbiddin Ahmad al-Qozi Imomiy, Shamsuddin Muhammad Jojarmiy va Abdurahim Qoshg‘ariylarni saroyga taklif qilgani va shu mavzuni muhokama qilishganini ta’kidlagan bo‘lsa, Xondamir esa ularni Hirot saroyiga chaqirtirilganini aytish bilan kifoyalanadi **[4:499-b]**. Shuni aytish kerakki, ular ham ko‘plab qadimiy asarlarda berilgan fikrlarni tahlil qilishadi, biroq yakdil xulosa bildira olishmagan.

Bu davrda Xurosonda diniy bilimlar bilan birga tabiiy va riyoziyot ilmlari ham rivojlangan. Jumladan, 1456-yilning may oyi oxirlarida Hirotida quyosh tutilishi hodisasi yuz bergan. Ushbu tabiat hodisasi erta tongda yuz bergan va aholi quyosh tutilishini yaqindan kuzata olgan **[3:386-b]**. Abulqosim Bobur mirzo saroyning olim va munajjimlarga bu hodisani tadqiq etish vazifasini topshiradi. Aytish kerakki, ayni masala to‘g‘risida bir necha marta ilmiy munozaralar bo‘lib o‘tgan va yakunda uning hech qanday ta’siri yo‘qligi hamda tabiat hodisasi mazmunidagi xulosaga kelishgan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar Hirot saroyida ham astronomiya fani rivojlangani va fanga doir ilmiy asarlar yaratilgani hamda olimlar tomonidan quyosh, oy tutilishi kabi hodisalarni o‘rganishganidan dalolat beradi.

Shahzodalar o‘rtasida fan va madaniyat namoyondalari bilan bir qatorda din arboblari ham o‘z saroylariga jalb qilish borasida raqobat qilishgan. Masalan, o‘z davrining yirik din olimlaridan biri shayxulislom Xoja Burhoniddin Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilgan va 1455-yilda Sulton Abu Sa’id mirzo uni Samarqandaga taklif qiladi hamda bir necha bosh shunqor, otlar va qimmatbaho sovg‘alarni jo‘natadi **[8:557-b]**. Sulton Abu Sa’id mirzo Hirotga Abdulkarim bakovulni elchi sifatida yubirgan edi. “Matlai sa’dayn”...da esa Abulqosim Bobur mirzo avval shayx hazratlarini yuborishni istamagan bo‘lsa-da, keyinroq ikki o‘rtada munosabatlarni yaxshilashini uchun rozi bo‘lganligi va Xoja Burhonuddin katta miqdordagi pul, otlar, tuyalar, qimmatbaho kiyimlarni sovg‘a qilingani hamda Samarqandga yuborilgani qayd etiladi **[9:377-378-b]**. Abulqosim Bobur mirzo va shayxulislom o‘rtasida diniy va dunyoviy masalalar borasida qizg‘in suhbatlar bo‘lib turgan va bir safar uning aql-zakovatini yuqori baholab, o‘zining joyiga o‘tqazish orqali hurmat ko‘rsatgan. Uni ulamoyu shayxlar va darveshlar bilan shuhbat qilishga moyilligi yuqori bo‘lgan va shunday munozaralardan biri

⁴⁴ Izoh: Ilmi maoniy – biror narsa yoki hodisaning tub mohiyati, mazmunini yechib beruvchi ilm.

Mashhad shahrida o‘tkazilgan [10:153-b]. Xususan, 1457-yilda sadr shayxzoda Pir Qavom tashabbusi bilan majlis tashkil qilingan va unga turli hududlardan ko‘plab “majzub”lar tashrif buyurgan.

XULOSA. Abuloqosim Bobur mirzoning siyosiy faoliyati bilan birga uning fan va madaniyat sohasidagi ishtirokini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Abulqosim Bobur mirzo Hirot, Mashhad, Yazd shaharlarining me‘moriy jihatdan tiklanishiga va obodonchiligiga yuqori darajada e‘tibor qaratgan. Balki, bir necha buyuk shaxslarni kamol topishiga katta hissa qo‘shgan. Ayni tadqiqotlar bizga shahzoda haqida yangicha ilmiy mulohazalarni bildirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Қайта нашр. – Тошкент: Info Capital Group, 2020. – 364 б.
2. Аҳмедов Б. Давлатшоҳ ва унинг асари ҳақида сўз. // Самарқандий, Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони. (“Тазкират уш-шуаро”дан) Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов тарж.; Шеърларни С.Раҳмон тарж. қилган. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 3-8.
3. Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1996. – Б. 312.
4. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.
5. Ғаниева С. Сўзбоши. // Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ //Форс тилидан таржима, изохлар, кириш ва илова муаллифи К.Раҳимов. – Тошкент: Ёшлар, 2018. – Б. 234.
6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.
7. Ҳасанхўжа Нисорий. Музаққир ахбоб (Дўстлар ёдномаси). /Таржимон ҳамда сўзбоши ва изохлар муаллифи Исмоил Бекжон. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси шариёти, 1993. – Б. 343.
8. Alan, Hayrunnisa/ Sultan Ebu Said Devri Timurlu Tarihi (1451-1469), Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Tarih Ana Bilim Dalı, Ortaçağ Tarihi Bilim Dalı, Tezi 1996. – S. 153.
9. سلطان محمد فخرى بن محمد اميرى هروى. روضة السلاطين. ص. ۳۵-۳۴
10. غياثالد بن هممالدين خاندмир خلاصه الا خيار فى بسان احوال الا خيار. O‘RFAShI. Qo‘lyozma. №2209. -499b.
11. جعفر بن محمد جعفرى، تاريخ يزىد، ج ۱، ص ۱۷۴-۱۷۵، ج افشار، تهران ۱۳۴۳
12. احمد بن حسين على كاتب. تاريخ جديد يزىد. - ص. ۳۵۷